

THE PLACE OF DANIEL KEHLMANN IN MODERN GERMAN LITERATURE AND A VIEW OF HIS CREATION

Gayieva Yaznab Narimanovna

O'zDJTU, "Roman-german tillari tarjimashunosligi"

kafedراسi o'qituvchisi Toshkent, O'zbekiston

Tel.: +998935772841

E-mail: zaynab.gazieva@mail.ru

ANNOTATION

The role of Daniel Kehlman in modern German literature, about his life and creativity, about the meaning and essence of the ideas put forward in his works.

Keywords: modern German literature, Daniel Kehlmann

ANNOTATSIYA:

Zamonaviy nemis adabiyotida Daniel Kehlmanning o'rni, uning hayoti va ijodiga, asarlaridagi ilgari surilgan g'oyalar mazmun-mohiyati haqida.

KALIT SO'ZLAR: zamonaviy nemis adabiyoti, Daniel Kehlmann

АННОТАЦИЯ:

О месте Даниэля Келмана в современной немецкой литературе, о его жизни и творчестве, о содержании и сущности идей, выдвинутых в его произведениях.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: современная немецкая литература, Даниэль Келманн

Nemis adabiyoti Johann Wolfgang Goethe, Heinrich Heine, Friedrich Schiller, Hermann Hesse, Thoms Mann bilan yakunlanadi, digan kishi qattiq yanglishadi. Boisi olmon adabiyotining bunday buyuk va sarvorli, johon mumtoz adabiyotga o'zining nomini o'chmas qilib bitgan, hamda uni betakror asarlari bilan boyitgan adiblarning hali izdoshlari bor. Ulardan biri, nemis va Avstriya adabiyoti vakili Daniel Kehlmannidir. Daniehl Kehlmann 1975-yil Germaniyaning München shahridan tavallud topgan. Daniel Venada falsafa va olmon tilidan tahsil oladi. 2001-yildan dotsent sifatida Germaniyaning Mainz shahri Johannes Gutenberg universiteti, 2005-2006 yilda Wiesbaden oliygohida siyosatdan, 2006-2007 yillar davomida Göttingen universitetida nazmdan, 2010-yil Köln universiteti hamda Nw York universitetlarida jahon adabiyoti tahsil beradi. 2014-yilda Frankfurt am Main shahrining Johann Wolfgang Goethe universitetida Frankfurt Poetikasidan mazuzalar qiladi. U Manz fanlar akademiyasi va adabiyoti, Hanburg san'at akademiyasi, Olmoniyaning til va adabiyot akademiyasi hamda 2020-yildan boshlab Germaniya yozuvchilar uyishmasi a'zosi hisoblanadi.

Daniel Kehlmanni dunyoga mashhur qilgan asarlaridan biri 2003-yilda yaratilgan "Ich und Kaminski" (Men va Maninskiy) bo'lsa, 2005-yilda yozilgan "Die Vermessung der Welt" (Dunyoning o'lchami) romani Urishdan keyingi eng katta muvaffaqiyatga erishgan asar, deb tan olingan. Bundan tashqari adib qalamiga mansub "Beerholms Vorstellung" (Beerholm tavallosi) roman Deuticke Verlag, Wien 1997)), "Unter der Sonne" (Quyosh ostida) hikoyalar

to'plami, Deuticke, Wien 1998)), "Mahlers Zeit" (Mahler vaqti) roman, Suhrkamp Verlag, Frankfurt am Main 1999)), "Der fernste Ort" (Uzoqdagi makon) novella, Suhrkamp, Frankfurt am Main 2001)), "Ruhm" (Shon) to'qqiz hikoyali roman, Rowohlt, Reinbek bei Hamburg 2009)), "Du hättest gehen sollen" (Ketishing kerak edi) hikoya, Rowohlt, Reinbek bei Hamburg 2016)), "Tyll" roman, Rowohlt, Reinbek bei Hamburg 2017)), "Wo ist Carlos Montúfar?" (Carlos Montufar qayerda?) essay, Rowohlt, Reinbek bei Hamburg 2005)) kabi asarlar ham bestzähler darajasiga erishgan.

Daniel Kehlmannning ikki romani, "Die Vermessung der Welt" hamda "Ruhm" Hollywoodning Warner Browsers kompaniyasi tomonidan suratga olingan. Adibning uzoq izlanishlari va ijodi Yevropa o'lkalarida juya yuqori baholangan, hamda:

1998-yil olmon iqtisodiyoti madaniy kengashi sovrini;

2000-yil Berlin adabiy kengashi stipendiyasi;

2003-yil Avstriya hukumati sovirini;

2005-yil Minden jamiyatining Candide adbiy mukofati;

2005-yil "Die Vermessung der Welt" romani uchun eng yaxshi olmon kitobi mukofati;

2006-yil Konrad-Adenauer-jarg'armasi adabiy mukofati;

2006-yil Heimito von Doderer-adabiy mukofati;

2006-yil Kleist-mukofati;

2007-yil dunyo adabiyoti mukofati;

2007-yil "Die Vermessung der Welt" romani fransuz tilidagi xulosasi uchun Grand Prix du Livre des dirigeants für Les Arpenteurs du Monde sovrini;

2008-yil Per-Olov-Enquist-mukofati; Thomas-Mann-sovrini;

2010-yil "Ruhm" romani fransuzcha talqini uchun Prix Cévennes du roman européen für Gloire sovrini;

2012-yil Granz shahridagi namoyishida Nestroy-Teatr sovrini – Princetondagi sharpalar uchun mualliflik sovrini;

2013-yil "F" asari uchun olmoniyaning eng yaxshi kitobi sovrini;

2014-yil Frankfurter Poetikasi-Dotsenti;

2018-yil Frank-Schirrmacher-mukofati;

2018-yil Bad Homburg shahri Friedrich-Hölderlin-mukofati;

2019-yil "Tyll" asari uchun Schubart-adabiy mukofati;

2019-yil Anton-Wildgans-mukofati;

2020-yil "Das letzte Problem" asari uchun TV-Fictionning eng yaxshi kitobi sifatida Romyverleihung 2020 mukofati;

2020-yil "Tyll" asarining ingliz tilidagi tarjimasi uchun Xalqaro Booker Prize Shortlist sovrini;

2021-yil Elisabeth-Langgässer-adabiy sovrindori hisoblanadi.

Daniel Kehlmannning asarlaridagi voqelik bugungi ijtimoiy hayotimizda yuz berayotgan dolzarb muammolar hamda o'tmishdagi Yevropa hayot tarzini kinoya bilan yoritiladi. Uning asarlari turli ro'znomalar va adabiy tanqid vakillari tomonidan turlicha kutib olingan.

Danielning "Die Vermessung der Welt" [1.] romani haqida Frankfurter oynajahoni shunday deydi. "Adabiyotdagi yangi sinsatsiya. Daniel Kehlmann ikki daho, Aleksandr von Humboldt va Karl Friedrich Gaussning hayotini chuqur hazil orqali yoritib beradi. Adib olimlarning his

tuyg'ulari va kamchiliklarini mahorat bilan yoritib beradi. Yorqin falsafiy, turli sarguzashtlarga boy romani." [2.]

Ruhm [3.] - "Yorqin g'oyaga boy asar". "Daniel Kehlman ijodda har narsaga qodir". [4.]

"Makon va zamonda toblangan asar." [5.]

"Kuchli va mutoyibaga boy kuchli asar. Asardagi har bir voqelik o'zgacha betakror" [6.]

"Hikoyalar ichida yashaymiz, Qaysi biri qayerdan boshlanb, qayerda tugashi aniq emas." [7.]

Tyll [8.] - "Bestseller"[9.]

"Daniel Kehlmann ijodidagi eng yaxshi roman." [10.]

"Kehlman hikoya san'ati hayratlanarli darajada, huddiki ko'kka tortilgan dor yo'lida yengil va ohista harakatlanayotgan shulaga o'shaydi." [11.]

"Tyll, muhokamaga boy, mumtoz adabiyot davomchisi." [12.]

Daniel Kehlmann hamda uning ijodi yuzasidan yuqorida keltirilgan suhbu fikr-mulohazalar dengizdan topchi. Ularning barini bilish uchun avvalam bor o'quvchi yoki tadqiqotchi o'zi mutola qilishi va fikrlashi maqul dib bildik. Illo Daniel ijodi o'tgan asr mumtoz adabiyot vakillarining asarlari, ijodlaridan kam emas. Uning asarlarida voqelik bugun va o'tmishda, ilm-faning turli jabhalari, turli davr qahramonlari, ijtimoiy hayot, taqdirning qaltis va qiziq hazillari, inson ruhiyati go'zal tarzda yoritib beriladi. Adibning "Ruhm" (To'qqiz taqdirli to'qiz hikoya) romanida to'qqiz kimsaning turli taqdiri yoritib o'tiladi. Roman qahramonlari bir-birlarini hayotda ko'rmagan, uchratmagan bo'lsa ham asarda ular qisman to'qnash kelishadi. Asarning "Stimmen" (Kutilmagan qo'ng'iroq) bo'limida texnik hodim Ebling, oilali, o'zi texnik uskunalar bilan ishlasada uyali aloqa uskunasi yoqtirmas, biroq kunlarning birida oilasi bilan muloqatda bo'lib turish uchun telefon sotib olishga qaror qiladi. Ayni shu qarori uning hayotini butunlay o'zgartirib yuboradi. U sotib olgan raqam Ralf ismli shaxsga tegishli bo'lgani uchunmi Eblingga qandaydir ayollardan tinmay qo'ng'iroq bo'ladi.

"In Gefahr" (Xavfli sayohat) qismida Leo Richter ismli adib hamroh ayoli Elisabeth bilan uzoq ijodiy sayohatga chiqadi. Leo Gemaniyadan boshqa o'lkaga chiqmagan, xavf-hatar nimaligini bilmas ijodkor, uning hamrohi har qanday xavfga tik boqadigan ayol, ularning muhabbati ushbu safarda sinaladi.

"Der Ausweg" (Yechim) qismida mashhur aktiyor Ralf Tannerning taqlidchisi uning butun shon-shavkati, boyligi va yillab to'plagan obro'sini bir kechada tortib oladi. Asl Ralf bir hechada hech hamma narsasidan ayrilib, hech kim bo'lib qoladi.

Asar juda qizg'in voqealarga boyligi bilan boshqa asarlardan butunlay ajralib turadi. Adibning asarlari dunyoning ko'plab tillari, shu jumladan "Die Vermessung der Welt" romani Oybek Ostonov, hamda turli hikoyalari Soatov Furkat tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Daniel Kehlman ijodidan Yevropada ko'plab olimlar ilmiy ishlar qilishgan va tez orada o'zbek olimlari tomonidan ham uning ijodi tadqiq qilinadi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Die Vermessung der Welt". Roman. Daniel Kehlmann. Rowohlt Taschenbuch Verlag, Reinbek bei Hamburg, 2008.
2. Frankfurter Rundschau, Zeitung von Frankfurt am Main. 2008.
3. Ruhm. Roman, D. Kehlmann, Rowohlt Taschenbuch Verlag, Reinbek bei Hamburg, 2010.
4. "Neue Zürcher Zeitung", Tageszeitung Zürich, Schweiz-2010.

5. Wie Welt. Tageszeitung von Deutschland. 2010.
6. ZDF heute journal. Deutsches Fernsehprogramm. 2010.
7. Ruhm. Roman, D. Kehlmann, Rowohlt Taschenbuch Verlag, Reinbek bei Hamburg, 2010.
8. Tyll. Roman, D. Kehlmann, Rowohlt Taschenbuch Verlag, Reinbek bei Hamburg, 2019.
9. Der Spiegel. Deutsche Zeitschrift. Spiegel-Verlag Rudolf Augstein GmbH & Co. KG (Deutschland), Hamburg. 2019.
10. Tilman Spreckelsen, deutscher Redakteur, Autor und Herausgeber. Frankfurter Allgemeine Zeitung. 2019.
11. Richard Kämmerlings, deutscher Literaturkritiker. Die Welt. 2019.
12. Judith von Sternburg, deutsche Journalistin. Frankfurter Rundschau. 2019.
8. Heinz Ludwig Arnold (Hrsg.): Daniel Kehlmann. In: text + kritik, Heft 177, Januar 2008.
9. Iuditha Balint: Hyperfiktion, Simulation. Medien(technologien) und die Architektonik des Erzählens in Daniel Kehlmanns „Ruhm. Ein Roman in neun Geschichten“. In: Jahrbuch der ungarischen Germanistik 2010. Bonn 2011, S. 15–31.
10. Roland Z. Bulirsch: Weltfahrt als Dichtung. In: Sinn und Form. 6/2006. Aufbau, Berlin 2006, S. 846–852.
11. Anna Echterhölter: Schöner Berichten. Alexander von Humboldt, Hubert Fichte und Daniel Kehlmann in Venezuela. In: Kultur & Gespenster. 1 (2006).
12. “Umidsiz uy” tarjimalar to‘plami, Uzgidrometa nashriyoti, Toshkent, 2010-yil.

Foydalanilgan internet saytlari:

1. https://de.wikipedia.org/wiki/Daniel_Kehlmann#Literatur